

KONSEPT VA UNING TURLICHA TALQINLARI

Xalilova Zarnigor Muhammadjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Ingliz tili o'qituvchisi

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu - konseptdir. Konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” soʻzining kal'kasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept koʻrinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir koʻrsatadi. Inson oʻzining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.

Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining oʻziga xos jihatlarni ifodalaydi.

Oʻtgan asrning 90-yillarida faollashgan “konsept” termini birinchi marta S.A.Askol'dov-Alekseev tomonidan 1928 yilda qoʻllangan va tushunchadan farqlangan. Olimning fikricha, “konsept fikriy qurilma, fikrlash jarayonida bir turdagi cheksiz narsalarni almashtiradi, u olam tasvirining ifoda birligi – til va madaniy bilimlar, tasavvur va baholarni oʻz ichiga olgan mental hodisa. Ye.S.Kubryakova talqinicha, “konsept ongda oʻrnashgan, ongning jamlik tabiatiga ega boʻlinuvchan birligi, konsept asosida inson tafakkur jarayonini amalga oshiradi. Konsept hodisa va uning sifatleri haqidagi axborotning ongda shakllanishi jarayonida vujudga keladi, shuningdek, bu axborot oʻz ichiga hodisalarning borliqdagi va tasavvurdagi ob'ektiv oʻrni haqidagi tavsiflarni oladi. Bu ma'lumot individning borliq haqida koʻrgan, bilgan, tasavvur qilgan, oʻylaganlari haqida boʻladi”.

Mazkur termin tilshunoslikda dastlab tushuncha soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa, uning hozirgi vaqtdagi izohidan tushuncha terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini koʻrish mumkin.

M.V.Nikitinning fikricha, konsept ongning har qanday boʻlinuvchan mazmuniy unsuri, ya'ni u mazmunga tayanadi, mavhum va umumlashgan tushunchani ham, aniq va xususiy tasavvurni ham qamrab oladi. Shu jihati bilan (keng qamrovliligi – umumiyini ham, xususiyni ham oʻz ichiga olishi bilan) tushunchadan farqlanadi.

N.Yu.Shvedova konsept – bu tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, oʻz tarixiy ildizlariga ega boʻlgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi.

L.V.Adonina konsept terminiga bagʻishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 xil ta'rifini keltiradi va konsept terminini oʻn

nuqtai nazardan tasnif qiladi. Bu tasnifga ko‘ra, konsept standartlashishiga ko‘ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko‘ra leksik, frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo‘linadi va h.k.

Inson so‘zlarni ularning ma'nosi darajasida emas, balki ularning ma'nosi beradigan mazmun darajasida, ya'ni konseptlar darajasida egallaydi. So‘zlarning ma'nosi ushbu ma'nolar ortida turadigan ma'lum kognitiv tuzilishlar bilan o‘zaro bog‘liq va ularni tushunishni ta'minlaydi.

Konsept haqida so‘z ketganda, uni agar o‘rinli bo‘lsa, birgina qiyos bilan tushuntirish mumkin: “Zotan, uydan murod kelindir. Kelinga qarab turuvchi, xonalarga pardalar tikib o‘tiradigan kampirlaru kelib-ketuvchi mehmonlar ham emas”.

Konsept qanchalik chuqur tahlil qilinmasin, uning tushuncha bilan chegarasi yuvilib ketmoqda, ularni farqlash imkoniyati kamayib borayotir. Demak, bu ikki – biri ko‘hna va biri navqiron mohiyatlarning chegarasini oydinlashtirish, tavsiflarda ularning barqaror sifatlarini aniqlash kerak, aks holda, ulardan biri (albatta, keyingisi) o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Konsept – mohiyatan semantik qurilma; lingvomadaniy hodisa.

Muayyan konsept zamirida ma'lum bir konseptosfera shakllanadi. “Konseptosfera – konseptual maydonni tashkil etuvchi “konseptual maydonchalar”dir”. Konseptosfera – kishilarning sistema sifatida shakllangan bilimlarini ifodalovchi fikriy obrazlar yaxlitligidir. Demak, aytish mumkinki, konseptosfera sistemaviylik; uzviylik; uzluksizlik; taqozo etuvchilik; farqlilik; pog‘onaviylik singari tashkiliy sifatlarga ega. “Qaysi xalq tilida yaratilgan manbalar – xalq og‘zaki ijodi, adabiy va ilmiy yodgorliklar, manbalar, san'at asarlari qanchalik ko‘p va boy bo‘lsa, o‘sha xalqning milliy konseptosferasi ham shunchalik boy bo‘ladi”.

Har bir lingvistik paradigma o‘ziga xos tayanch tushunchalar va kategorial apparatga ega. Kognitiv yondashuvning yadroviy tushunchasi konsept bo‘lib, boshqa barcha tushunchalar uning atrofida aylanadi.

Kognitiv tilshunoslik konseptni, umuman olganda, “ong va bilim, tajriba asosida paydo bo‘ladigan axborot tarkibidagi mental va psixik resurs; xotira, mental leksika, konseptual sistema, miya tili; inson ongida aks etgan olam suratining mazmuniy va vazifa bajaruvchi birligi” sifatida tushunadi. Shuningdek, uning har bir tadqiqotchi tomonidan bo‘rttirilgan tomoni asosidagi tavsiflari ham talay. Masalan, Z.D.Popova, I.A. Sterninlar konseptni “o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lgan bilim kvanti sifatidagi fikriy birlik” tarzida tushunadilar. Keltirilgan qarashlarda qanchalik rang-baranglik bo‘lmasin, ularda fikriy birlik, bilim, borliq, xotira, til kategoriyalariga asoslanilganligini ko‘rish mumkin.

Konsept termini o‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Mamatov singari tilshunoslar tomonidan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologik aspektda atroflicha tadqiq etilgan.

N.Mahmudov o‘z maqolalaridan birida konsept termini eng ko‘p definisiyaga ega bo‘lgan termin ekanligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, rus tilshunosligida bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish ham mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertasiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”.

Umuman olganda konsept lingvokulturologik birlik sifatida ma’lum bir millat tarixi va madaniyatidan xabar beruvchi o‘ziga xos vositta bo‘lib, u o‘zi ifodalayotgan tushunchani millat va elat a’zolarining xos xususiyatlaridan va lisoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Kubryakova Ye.S. Yazikovaya kartina mira kak osobiy sposob reprezentasii obraza mira v soznanii cheloveka // Vestnik Chuvash. gos. ped. un-ta im. I.Ya. Yakovleva. – 2003. № 4. – S. 90.
- 2..Popova Z.D. Ponyatie «konsept» v lingvisticheskix issledovaniyax // Z.D. Popova, I.A. Sternin. – Voronej, 1999. – S.18.
- 3.Lixachev D.S. Konseptosfera russkogo yazika // Russkaya slovesnost': Antologiya / pod red. V.P. Neroznaka. – M.: Academia, 1997. – S. 280–287.
- 4.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012. – № 5. – B.3–16.
- 5.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Mamatov A. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? / O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy–amaliy anjuman materiallari). – Andijon, 2012. – B. 220.
7. Zarnigor Muhammadjon Qizi Xalilova. "Semantic-framic structure of family concept" Science and Education, vol. 3, no. 11, 2022, pp. 1349-1352.